**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QUDRATOVA SITORA OLIM QIZI

AQSH REGIONAL HIKOYACHILIGIDA AYOL VA JAMIYAT MUNOSABATLARI BADIIY IFODASI (M.FRIMEN VA YU.UELTI IJODI MISOLIDA)

10.00.04. – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

UO‘K 82-32(73):316

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Qudratova Sitora Olim qizi
AQSH regional hikoyachiligida ayol va jamiyat munosabatlari badiiy ifodasi (M.Frimen va Yu.Uelti ijodi misolida)..... 3

Kudratova Sitora Olim kizi
Literary Representation of the Relationship between Woman and Society in American Regional Short Fiction (Based on the works of M.Freeman and E.Welty)..... 21

Кудратова Ситора Олим кизи
Художественная репрезентация взаимоотношений женщины и общества в американской регионалистической малой прозе (на примере творчества М.Фримен и Ю.Уэлти) 39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 44

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QUDRATOVA SITORA OLIM QIZI

AQSH REGIONAL HIKOYACHILIGIDA AYOL VA JAMIYAT MUNOSABATLARI BADIIY IFODASI (M.FRIMEN VA YU.UELTI IJODI MISOLIDA)

10.00.04. – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.2.PhD/Fil4592 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ganiyeva Orzigul Xayridinovna** filologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Muxammedova Hulkar Eliboyevna** filologiya fanlari doktori, dotsent
	Saidova Muhayyo Umedilloyevna filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil «9» noyabr soat 1200 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1085 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «27» oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil «27» oktabr dagi 26-2 - raqamli reestr bayonnomasi.)

O.M.Fayzulloyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

M.R.Ochilova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

M.K.Bakayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori [PhD] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida ayol obrazining badiiy istifoda etilishi, jamiyatda gender munosabatlar, ayol shaxsiyati hamda ijtimoiy-ma'naviy ziddiyatlar tasviri mavjud poetik tizimlarda qator yangilanishlar vujudga keltirgani, badiiy ifodaning shakliy va mazmuniy konturlari kengayishiga olib kelgani hozirgi kunga qadar ilmiy muhitda diqqatni tortmoqda. Badiiy diskursda ayol obrazining spetsifikasini tahlilga tortish jamiyat tafakkurining teranlashuvida, ma'naviy-axloqiy, milliy yoxud umuminsoniy tushunchalarning mukammallashuvida, fuqarolarning o'zaro rishtalarida ong va dunyoqarashlarini shakllantirishning asoslarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida regional tasvir imkoniyatlari hamda janriy tabiatidan kelib chiqqan holda, Amerika adabiyotida realistik tasvir natijasida ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarning badiiy gavdalantirilishi borasida munosib fikrlar tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelmoqda. Mazkur tadqiqotlar mahobatli AQSh zaminining ko'plab regionlari misolida yetarlicha olib borilmagani, xususan real talqinda ayol va jamiyat munosabatlarida gender, etnik hamda shaxsiy o'zlik nuqtayi nazaridan tahlilga tortish, regional hikoyachilikning poetik taraqqiyoti hamda spetsifik jihatlarini, ularda ijtimoiy ta'sir tufayli xarakterlar shakllanishining ilmiy-nazariy xususiyatlarini aniqlash, xususan Frimen va Uelti hikoyalarida real hayot manzaralari, ijtimoiy o'zlik, gender tengsizlik, ayol va jamiyat orasidagi masalalarni o'rganish, regional hikoyalarda realistik uslub orqali ayol qahramon ruhiyati ifodasining namoyon etilish yo'llarini tahlil qilish imkonini yaratadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi jadal o'zgarishlar Yangi O'zbekistonning mafkurasi asoslarini odamiylik, ezgulik va odamoxunlik singari fazilatlar tashkil etishi ayon. Tabiiyki, bu jarayonda ayollarga e'tibor, gender munosabatlarga yuksak diqqatning ajratilishi jamiyatimizning yanada farovonlashuvi, oilalarning totuvlashuvi, barkamol farzandlar tarbiyasining yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining eng muhim jihatlaridan biri ham aynan xotin-qizlar masalasiga jiddiy e'tibor berilishi bo'lib, ularning huquq va manfaatlarining ta'minlanishi, gender tenglikning kafolatlanishi, oila, onalik va bolalikning himoyalanishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Zero, "Ayol baxtli bo'lsa, jamiyat baxtlidir"[1] xitobi hozirgi kunda bot-bot takrorlanayotgan bir pallada ayollarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash[2] muhim vazifalarimizdandir. Shu ma'noda, ayol sha'ni, qadri hamda qimmati borasida universal g'oyalarni, global muhit konteksti nuqtayi nazaridan ayol obrazi gavdalantirilishining poetik imkoniyatlarini tahlilga tortish, bu borada amalga

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – B. 233.
[2] Shu manba. – B. 236.

oshirilgan tadqiqotni ilmiy ommaga taqdim etish zamonaviy adabiyotshunosligimizda yangi bir yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. AQSh adabiyotida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida hukm surgan mahalliy kolorit (local color) adabiyoti mamlakat adabiy jarayonining muhim bosqichi sifatida ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganildi.[3] Ushbu yo‘nalishning adabiyotga kirib kelishi, uni shakllantirgan muhim omillar nazariy-tarixiy manbalarda atroflicha yoritildi.[4] Mahalliy kolorit asarlarida ma’lum hudud aholisining yashash tarzi, urf-odatlari, nutqiy xususiyatlari va ijtimoiy munosabatlari badiiy tasvirlanib, bunday o‘ziga xosliklar davrning B.Hart, M.Tven, S.O.Jyuet, K.Shopen singari yozuvchilari ijodida yaqqol namoyon bo‘ldi.[5]

---

[3] Howard J. A Companion to American Fiction. 1865–1914. / ed. by R.P. Lamb, G.R. Thompson. – Malden: Blackwell, 2005. – P. 120; Radke M. L. Local-Color Fiction in Middle Western Magazines 1865-1900. // A Dissertation Submitted to the Graduate School in Partial Fulfillment of the Requirements for The Degree Doctor of Philosophy Field of English, Illinois, 1965. – P. 20; Web.D.A. Particular Places: Local Color Writing in the United States 1870-1910. // A Dissertation Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Philosophy (English Language And Literature) In The University of Michigan 1997. – P. 3.; Matthew K.A. The U.S. Local Color Corpus 1865-1920 (Usloco): A Critical Description with Notes for Applications and Preservation. // A Thesis Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for The Degree of Master of Arts in English Washington State University Department of English May, 2022. – P. 5.

[4] Donovan J. New England Local Color Literature: A Woman’s Tradition. – New York: Frederick Ungar Publishing Co., Inc, 1988. – P. 9; Dike D.A. Notes on Local Color and Its Relation to Realism // College English. – 1952. – Vol. 14, No. 2. – P. 85. Stable URL: http://www.jstor.org/stable/37176; Garland H. Crumbling Idols: Twelve Essays on Art Dealing Chiefly with Literature, Painting and the Drama. – Chicago: Stone and Kimball, 1894. – P. 62.

[5] Jewett S.O. A White Heron and Other Stories. http://www.blackmask.com. 2001. – P. 3.; https://www.classicshorts.com/stories/LuckRoaringCamp.html

AQSh regional adabiyoti mahalliy kolorit adabiyoti bilan uzviy bog‘liq holda, alohida adabiy hodisa sifatida talqin etilib, turli adabiyotshunoslar tomonidan yoritildi.[6] AQSh adabiyotida shaxs va jamiyat, ayniqsa ayollarning ijtimoiy munosabatlardagi roli bir nechta tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o‘rganildi.[7] Bu davr adabiyoti makonga mansublik nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etib, ayniqsa davrning hikoyalarida o‘z aksini topdi. Amerika regional adabiyoti R.H. Brodxed, K. M.Skredsvig, J.S. Fini, S. Fut, M. Prays[8] kabi Amerika hamda A.B.Tanaseychuk, Ye.Yu.Rogonova[9] singari rus tadqiqotchilari tomonidan tadqiq etildi.

M.Frimen AQSh regional hikoyachiligida davrning dolzarb muammolarini yorituvchi hayotiy va haqqoniy asarlari bilan alohida o‘rin egalladi. Shuning uchun ham yozuvchi Amerika adabiy tanqidchiligida munosib mavqega ega.**[10]** Ko‘plab tadqiqotlarda M.Frimen hikoyalarida mamlakatning Yangi Angliya va janubiy shtatlardagi hukmron tuzum, davr va muhitning real manzarasi hamda ayollarning jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari turlicha bayon etildi. E.Fuler va L.Glasser kabi adabiyotshunoslar adiba ijodini mukammal tarzda tadqiq etib, ularning mavzu va g‘oya ko‘lami, spetsifik xususiyatlari va qahramonlarning o‘ziga xosligi to‘g‘risida fikrlarini qator kitob, maqola va risolalarda bayon etdilar.[11] Shuningdek, S.B.Shou, I.K.Nendi, M.Grimwud, A.S.Betti, K.Gardner, S.K.Xarris singari qator tadqiqotchilar yozuvchi hikoyalarida ayol obrazi, uning ijtimoiy tuzumga

---

[6] Callow J.T., Reilly R.J. Guide to American Literature from Emily Dickinson to the Present. – New York: Barnes & Noble Books, 1977. – P. 12.; Nancy K.B. Development of the Regional American Short Story. // A dissertation Submitted to the Faculty of the Graduate School of East Texas State University in partial fulfillment of the requirement for the degree of Doctor of education August, 1980. – P. 6.

[7] Saitov S. O.Genri ijodi va o‘zbek hikoyachiligida insoniy taqdirlar, shaxs va jamiyat munosabatlaridagi mushtaraklik. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2025. – B. 17.; Ganiyeva O. X. Jon Steynbek hamda Odil Yoqubov asarlarida inson va jamiyat munosabatlarining tasvirlanishi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2021. – B. 26.; Shukurova S. Jon Steynbek va Nazar Eshonqul asarlarida shaxs erki va jamiyat munosabatlarining badiiy-falsafiy talqini. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2023. – B. 24.; Umarova F. Zamonaviy ingliz va o‘zbek nasrida jamiyat va ayol munosabatlarining badiiy talqini (Devid Nikollsning “One day” va Iqbol Mirzoning “Bonu” asarlari misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2025. – B. 10.

[8] Brodhead R.H. Cultures of Letters: Scenes of Reading and Writing in Nineteenth-Century America Regionalism, Modernism, and the American Short Story Cycle. // A Dissertation Presented to the Faculty of the Graduate School of Yale University in Candidacy for the Degree of Doctor of Philosophy Chicago, 2007. – P. 120.; Skredsvig K. M. “Places Of The Heart”: Female Regionalist Writers In Nineteenth-Century U.S. Literature. // Filología Y Lingüística, Vol. 28, No. 6, 2002. – P. 81. https://revistas.ucr.ac.cr/index.php/filyling/article/download/4504/4321; Phinney J.S. Stages of Ethnic Identity Development in Minority Group Adolescents // The Journal of Early Adolescence. – 1989. – Vol. 9, No. 1–2. – P. 39. http://www.sagepublications.com; Foote S. Regional Fictions: Culture and Identity in Nineteenth-Century American Literature. – Madison: University of Wisconsin Press, 2001. – P. 4; Pryse M. Distilling Essences: Regionalism and “Women’s Culture” // American Literary Realism, 1870–1910. – 1993. – Vol. 25, No. 2. – P. 12.

[9] Рогонова Е.Ю. Поэзия Дальнего Запада второй половины XIX века и проблема регионализма в литературе США: автореф. дис. … д-ра культурологии. – М., 2012. – С. 31–35.; Танасейчук А.Б. Культурная самоидентификация американской цивилизации: на материале национальных и региональных литературных традиций США XIX века: автореф. дис. … д-ра культурологии. – М., 2008. – С. 24–29.

[10] Carlsen G.R., Schuster E.H., Tovatt A. American Literature: A Chronological Approach. – New York: McGraw-Hill, 1986. – P. 357.

[11] Fuller E. Mary Wilkins Freeman // A Thesis for the Degree of Bachelor of Arts in English College of Liberal Arts And Sciences University of Illinois, 1915. – P. 48.; Glasser L.B. In a Closet Hidden: The Life and Work of Mary E. Wilkins Freeman. – Amherst: University of Massachusetts Press, 1996. – P. 14.

munosabati, muqarrar tuzumning ayol ruhiyatiga ta’sir doirasi kabi badiiy mavzular yuzasidan bir nechta tadqiqotlarni amalga oshirdilar.[12]

Yu.Uelti ijodi AQSh regional adabiyoti vakillari orasida o‘zining realistik, mintaqaga xos betakror tasvirlari bilan ajralib turdi. Uning hikoyalarida asosan janubiy shtatlarning regional manzarasi adabiy an’analar doirasida tadqiq etilgan bo‘lib, unda ayol obrazi ijtimoiy muhit, tarixiy sharoit va madaniy qadriyatlar bilan uzviy aloqada tasvirlandi.[13] Xorijiy tadqiqotlarda Yu.Uelti hikoyalaridagi ayol va jamiyat munosabatlari ko‘proq psixologik jihatdan tahlil qilinib, uning ijodiga P.A.Tapli, Mc.C.Xelen, S.Mars, B.Kronaki, D.G.Robert, B.A.Denton hamda K.E. Xauellar tomonidan turlicha munosabat bildirildi.[14]

Mazkur dissertatsiyada AQSh mahalliy kolorit va regional adabiyoti hikoyachiligida janub ayoli obrazi uning o‘ziga xos xususiyatlari va jamiyat bilan munosabatlari kabi masalalarni M.Frimen hamda Yu. Uelti ijodi misolida tadqiq etish ko‘zda tutildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjima ishi” ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

---

[12] Shaw S.B. Mary E. Wilkins Freeman: Realism, Sentimentalism, And Popular Fiction // A thesis Submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy in English in the Graduate College of the University of Illinois at Urbana-Champaign, Urbana, Illinois, 1991. – P. 1. https://www.proquest.com/openview/ded64cb05083bd93b10970f37653a216/1?pq-origsite=gscholar&cbl=18750&diss=y; Nandy I. K A Critical Reading: Contradictory Perspectives on Patriarchy As Seen in The Female Characters of Mary E. Wilkins Freeman’s “The Revolt Of ‘Mother’ // Deiksis Vol. 6, No.1, 2014. – P. 33-34. https://journal.lppmunindra.ac.id/index.php/Deiksis/article/download/513/791.; Grimwood M. Architecture and Autobiography in ‘The Revolt of “Mother. // American Literary Realism, Vol. 40, No. 1, 2007. – P. 67. http://www.jstor.org/stable/27747273.; Betty A.S. Gender Not Geography: The Locale of Mary Wilkins Freeman’s Local Color. // A Thesis Submitted to The Faculty of The Graduate College of The Oklahoma State University in Partial Fulfillment of The Requirements for The Degree of Master of Arts, 1996. – P. 11. Harris S.K. Mary. E. Wilkins Freeman’s A New England Nun and the Dilemma of the Woman Artist. // Studies in American Humor, Penn state University press, Vol. 3, No. 9, 2002. – P. 28. https://www.jstor.org/stable/42573422; Gardner K. The Subversion of Genre in the Short Stories of Mary Wilkins Freeman // The New England Quarterly. – 1992. – Vol. 65, No. 3. – P. 466.

[13] Brown C.J. A Daring Life: A Biography of Eudora Welty. – Jackson: University Press of Mississippi, 2012. – P. 10.; Devi M.U. Eudora Welty on Woman’s Question. // An international journal of interdisciplinary studies of English, Vol. 2, No. 2, 2017. – P. 17. http://daathvoyagejournal.com

[14] Tapley P.A. The Portrayal of Women in Selected Short Stories by Eudora Welty. // A Dissertation Submitted to the Graduate Faculty of the Louisiana State University and Agricultural and Mechanical College in Partial Fulfillment of The Requirement for The Degree of Doctor of Philosophy in The Department of English North Texas State University, 1974. – P. 5.; Helen Mc.C, Voice And Silence: A Rhetorical Analysis of selected works of Fiction by Eudora Welty // A dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of doctor of philosophy in the graduate school of the Texas Woman’s University College of Arts And Sciences Denton, Texas, 2010. – P. 5.; Marrs S. One Writer’s Imagination: The Fiction of Eudora Welty. – Baton Rouge: Louisiana State University Press, 2002. – P. 38.; Chronaki B. Eudora Welty’s Theory of Place and Human Relationships. // South Atlantic Bulletin. – 1978. – Vol. 43, No. 2. – P. 40.; Robert D. G, Denton B.A. Eudora Welty’s “Flowers For Marjorie”: Toward The Caesura of The Unconscious // A Thesis Presented to The Graduate Council of The University of North Texas in Partial Fulfillment of The Requirements for The Degree of Master of Arts, Texas May, 1996. – P. 5.; Howell K.E. “Beautiful And Terrible in the Face”: Reconfiguring the Southern Beauty Myth Through the Short Fiction And Autobiographical Writings of Eudora Welty // A Thesis Presented in Partial Fulfillment of Requirements for The Degree of Master of Arts In The Department of English the University of Mississippi May, 2020. – P. 2.

Tadqiqotning maqsadi AQSh regional hikoyachiligida ayol va jamiyat munosabatlari badiiy ifodasini M.Frimen va Yu.Uelti ijodi misolida aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari

AQSh mahalliy kolorit adabiyoti, uni keltirib chiqargan tarixiy-nazariy omillarni aniqlash, mazkur yo‘nalishda yozilgan hikoya janriga mansub asarlarning badiiy xususiyatlarini nazariy o‘rganish;

AQSh regional hikoyachiligining shakllanish jarayoni, bunday hikoyalarning makon, til, madaniyatda farqlanishi, shakl va mazmun nuqtayi nazaridan o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

M.Frimenning AQSh regional adabiyotida tutgan o‘rni, hikoyalaridagi regionalistik elementlar tasviri, muallif hikoyachiligida davr, tuzum va muhitning badiiy voqelanishini ochib berish;

Yu.Uelti hikoyachiligi, uning ayol obrazi yaratishdagi individual o‘ziga xos uslub va mahorati, ayol va jamiyat munosabatlari tasvirida individual jihatlarni aniqlash;

mualliflar hikoyalarida real hayot manzaralari, ijtimoiy o‘zlik, gender tengsizlik, ayol va jamiyat orasidagi masalalarni hikoyalar doirasida dalillash;

mualliflar regional hikoyalarida realistik uslub orqali ayol qahramon ruhiyati ifodasining namoyon etilish yo‘llarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida M.Frimenning “A New England Nun and Other Stories”, “The Revolt of Mother and Other Stories” hamda Yu. Ueltining “A Curtain of Green and Other Stories”, “The Wide Net and Other Stories” hikoyalari to‘plamlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini M.Frimen hamda Yu.Uelti hikoyalari misolida AQSh regional hikoyachiligida ayol va jamiyat munosabatlari badiiy ifodasi masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda biografik, tavsifiy-rivoyaviy, badiiy-psixologik, kognitiv-diskursiv kabi tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**:**

AQSh mahalliy kolorit hamda regional hikoyachilik kontekstida feministik o‘zlik yoritilishi; yo‘qotish va tushkunlik tuyg‘ulari istifodasi; shaxsiy, etnik, irqiy, gender o‘zlik, individualizm hamda ichki ziddiyatlarning empatik rakursda voqelanishi; yakkalanish va jamoaviylik, o‘ziga xoslik hissi, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi tafovut, makonga qaratilgan ifodada ayol va jamiyat munosabatlari tasviri kabi konturlar kengaygani isbotlangan;

M.Frimen regional hikoyalarida ayol qahramonlar topologik mansublik, tranzit yosh, mikro va makro muhit ta’sirida etnik o‘zlik shakllanishining yetuklik (achieved), noaniqlik (diffuse), o‘zlikni izlash (moratorium), andoza (foreclosed) bosqichlarida namoyon bo‘lib, ayol personajlar ichki dunyosi regional tasvir elementlari, obrazli ifodalar, ruhiy tasvirning bevosita va bilvosita shakllari orqali badiiy gavdalantirilishiga oid individual jihatlar asoslangan;

Yu.Uelti hikoyalarida regional muhit tufayli tashabbuskorlar (initiates), yolg‘iz ayollar (isolated spinsters), ona rolidagi ayollar (Mother women), mustaqil ayollar (liberated women) gavdalanishi hamda ayol obrazlarida ijtimoiy muhit ta’siri

natijasida ijobiy va salbiy, nisbiy, kontekstual, legitim yoki nolegitim o‘zlikning ko‘rinishlari namoyon bo‘lishi yozuvchi uslubida spetsifik psixologik aspektlar yetakchiligida voqelanganligi aniqlangan;

Amerika regional hikoyalarida ayol qahramonlarning ijtimoiy munosabatlar muhitida kontrast ifodasi AQSh janubi kontekstida patriarxal, axloqiy va madaniy stereotiplar fosh etilgani, asarlarning episentrida oila hamda oilaviy rishtalar tasviri turishida voqelansa, Janub regional hikoyalarida ijtimoiy begonalik, nolegitimlik, shaxs-jamiyat ziddiyatlarini ochib berilishi M.Frimen va Yu.Uelti kichik nasri namunalari misolida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

AQSh regional hikoyachiligida ayol va jamiyat munosabatlari badiiy talqinining spetsifik jihatlarini ochib berish, struktur-mazmuniy spetsifikasini etnik o‘zlik, badiiy-psixologik hamda kognitiv nuqtayi nazardan tahlilga tortishda M.Frimen hamda Yu. Uelti kabi yozuvchilar kichik nasriy asarlarining badiiy qiymati dalillangan;

adabiyotshunoslikda hikoya janrida yozilgan badiiy asarlarda ayol va jamiyat munosabatlari talqin etilgan nasriy asarlar poetikasini muayyan asarlar misolida dalillash tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti, jahon adabiyoti, adabiyotshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasi, kognitiv adabiyotshunoslik kabi fanlardan yaratilajak darslik va qo‘llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

M.Frimen hamda Yu.Uelti regional hikoyalarida ayol va jamiyat munosabatlarining badiiy istifoda etilishida milliy-madaniy qadriyatlar tasvirlanishi, ayol o‘zligining etnik jihatdan bosqichlariga urg‘u berilishi, ijtimoiy gender tengsizlik singari masalalarning dadil o‘rtaga qo‘yilishi kamol topayotgan yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirishda, jamiyatda inson qadri va qimmatiga e’tibor qaratishda odamiylik, hurmat hamda izzat kabi tuyg‘ular muhimligini anglashida benihoya ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, muammoning aniq qo‘yilishi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullar, amalga oshirilgan tahlillarning biografik, tavsifiy-rivoyaviy, badiiy-psixologik, kognitiv-diskursiv tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr, xulosa, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyotshunoslik sohasida mahalliy kolorit hamda regional tasvir borasida mavjud muammolarni tadqiq qilish, mazkur tadqiqiy jarayonning asosiy tahliliy xulosalaridan M.Frimen hamda Yu.Ueltining ayol va jamiyat munosabatlari badiiy talqiniga asoslangan hikoyalarida mualliflarning individual jihatlari, ayol obrazi spetsifikasi haqidagi tasavvurlarni yanada kengaytirish, M.Frimen hamda Yu.Uelti hikoyalari misolida AQSh regional kichik nasridagi ayol obrazi o‘zligining ijtimoiy munosabatlar kontekstida ifodalanishini spetsifik imkoniyatlar nuqtayi nazaridan batafsil tadqiq etish, mazkur yo‘nalish doirasida ikkala muallifning universalligini aniqlash imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya faktik materiallari va ilmiy xulosalaridan bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun “Xorijiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Jahon adabiyoti”, “Stilistika” o‘quv kurslari, o‘rta ta’lim “Adabiyot” o‘quv predmeti bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borishda, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarishda, Amerika adabiyoti tarixidan maxsus kurslar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. AQSh regional hikoyachiligida ayol va jamiyat munosabatlari badiiy ifodasining M.Frimen va Yu.Uelti ijodi misolida yoritilishi jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

AQSh mahalliy kolorit hamda regional hikoyachilik kontekstida feministik o‘zlik yoritilishi; yo‘qotish va tushkunlik tuyg‘ulari istifodasi; shaxsiy, etnik, irqiy, gender o‘zlik, individualizm hamda ichki ziddiyatlarning empatik rakursda voqelanishi; yakkalanish va jamoaviylik, o‘ziga xoslik hissi, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi tafovut, makonga qaratilgan ifodada ayol va jamiyat munosabatlari tasviri kabi konturlar kengayganiga oid ilmiy xulosa va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2022-2024-yillarda bajarilgan

“REP-25112021/113–UzUDT: O‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash uchun bog‘liqlik daraxti korpusi va uning semantik tahlili” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining 2026-yil 23-yanvardagi №04/11-2463-son ma’lumotnomasi). Natijada, mahalliy kolorit hamda regional hikoyachilik kontekstida realistik va detallarga boy talqin orqali feministik o‘zlik yoritilishiga oid qiyosiy tahlillarni boyitishga xizmat qilgan;

M.Frimen regional hikoyalarida ayol qahramonlar topologik mansublik, tranzit yosh, mikro va makro muhit ta’sirida etnik o‘zlik shakllanishining yetuklik (achieved), noaniqlik (diffuse), o‘zlikni izlash (moratorium), andoza (foreclosed) bosqichlarida namoyon bo‘lib, ayol personajlar ichki dunyosi regional tasvir elementlari, obrazli ifodalar, ruhiy tasvirning bevosita va bilvosita shakllari orqali badiiy gavdalantirilishiga oid individual jihatlar bilan bog‘liq nazariy xulosalardan Buxoro davlat universitetida SUZ80021IN3103 raqamli “Amerika adabiyoti klubi” mavzusidagi xorijiy loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2026-yil 21-yanvardagi №06/393-son ma’lumotnomasi). Natijada M.Frimen hikoyalari ayol muammolarini ko‘tarish bilan birga, umumiy insoniy qadriyatlar va universal mavzularni ham chuqur ifoda etganligi asoslanishiga erishilgan;

Yu.Uelti hikoyalarida regional muhit tufayli tashabbuskorlar (initiates), yolg‘iz ayollar (isolated spinsters), ona rolidagi ayollar (Mother women), mustaqil ayollar (liberated women) gavdalanishi hamda ayol obrazlarida ijtimoiy muhit ta’siri natijasida ijobiy va salbiy, nisbiy, kontekstual, legitim yoki nolegitim o‘zlikning ko‘rinishlari namoyon bo‘lishi yozuvchi uslubida spetsifik psixologik aspektlar yetakchiligida voqelanganligi bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 314-sonli buyrug‘iga asosan berilgan №429 raqamli nashr ruxsatnomasi asosida 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan “Til aspektlari

amaliyoti” nomli darslikni yaratishda foydalanilgan (Buxoro davlat pedagogika institutining 2026-yil 28-yanvardagi №03/01-157-son ma’lumotnomasi). Natijada AQSh regionalistik hikoyalarida ayol obrazlari faqat individual ruhiy tajriba egasi emas, balki muayyan ijtimoiy-madaniy muhit ta’sirida shakllangan murakkab va ko‘p qatlamli shaxslar sifatida namoyon bo‘lishi, ularning badiiy kontekstda turli yondashuvlar orqali realistik ruhda ifoda etilishi orqali darslikning diskurs tahlili qismi takomillashtirilgan;

Amerika regional hikoyalarida ayol qahramonlarning ijtimoiy munosabatlar muhitida kontrast ifodasi AQSh janubi kontekstida patriarxal, axloqiy va madaniy stereotiplar fosh etilgani, asarlarning episentrida oila hamda oilaviy rishtalar tasviri turishida voqelansa, Janub regional hikoyalarida ijtimoiy begonalik, nolegitimlik, shaxs-jamiyat ziddiyatlarini ochib berilishi M.Frimen va Yu.Uelti kichik nasri namunalari misolida dalillanganligi bilan bog‘liq xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokanali davlat muassasasining “Assalom Buxoro”, “Najot bilimda” teleko‘rsatuvlari, “Buxoro” radiosining “Ta’limdagi muammolar” radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokanalining 2026-yil 19-yanvardagi №01-09-09-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlar ilmiy-ommabopligining ta’minlanishiga, ilmiy manbalar bilan boyitilishiga va teletomoshabinlarning ushbu soha yuzasidan bilimlarini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 9 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, aprobatsiyasi, joriylanishi, e’lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**AQSh regionalizm adabiyotida hikoya janri xususiyatlari va takomili**” deb nomlangan bo‘lib, ikki fasldan tarkib topgan.

Birinchi bobning birinchi fasli “AQSh mahalliy kolorit adabiyotining tarixiy-nazariy asoslari” deb atalgan bo‘lib, AQSh mahalliy kolorit hamda regionalizm

davri adabiyoti fuqarolar urushidan keyingi davr, migratsiya, ochlik hamda turli darajadagi ijtimoiy illatlarni aks ettirgani, hikoyalar mahalliy badiiy ifodaga asoslangan holda makonga mansublik talqini ustuvorligi xususida fikr yuritilgani kabi masalalarni ko‘rib chiqadi. Mahalliy kolorit adabiyotida realistik va detallarga boy tasvirlar orqali o‘quvchiga muayyan joyni “sezdirish” imkoni beriladi, bu Amerika jamiyatida milliy o‘zlikni anglash jarayoni kuchaygan bir paytda ahamiyatli bo‘ldi. Mahalliy kolorit ayniqsa fuqarolar urushidan keyingi davrda, mamlakatning turli burchaklaridagi madaniy xilma-xillikni ifodalash vositasi sifatida ishlatilib, turli ijtimoiy qatlamlar, etnik guruhlar va dialektlarni o‘z ichiga olgan holda, Amerika jamiyatining mozaikasini yaratishda muhim rol o‘ynadi. Bu davr adabiyotining ijtimoiy va tarixiy ildizlariga chuqurroq nazar solgan G.Xiksning (Granville Hicks) “The Great Tradition: An Interpretation of American Literature Since the Civil War (1933)” fundamental tadqiqotida fuqarolar urushidan keyingi davrda mahalliy kolorit adabiyotining sezilarli darajada ommalashganini ilmiy asosda ko‘rsatib beradi. G.Xiks bu davrni shunday ta’riflaydi: “AQShda fuqarolar urushidan keyin mahalliy kolorit ruhida yozilgan asarlar yetakchi o‘rinni egalladi”[15], ya’ni har bir jurnal, kitob, hatto gazetalar mahalliy koloritga oid hikoya, maqola va tasvirlarni qamrab oldi. Bu holat mahalliy koloritni o‘sha davrdagi jamiyat ijtimoiy ongining ifodasi, madaniy xilma-xillikni hujjatlashtiruvchi adabiy shakl sifatida qadrlangani va ko‘plab adiblarning yozuv uslubiga aylanganini namoyon etadi. Mahalliy kolorit adabiyoti nafaqat o‘ziga xos estetik vosita, balki madaniy antropologiya[16] va tarixiy xotira bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan adabiy hodisa ekanligi oydinlashadi, u nafaqat mintaqaviylik orqali milliylikni ifodalashga intildi, balki shu orqali Amerika adabiyotini yanada ko‘p ovozli, murakkab va chuqur mazmunli tizimga aylantira oldi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “AQSh regional hikoyachiligi: makon, til, madaniyat” deb nomlangan bo‘lib, mahalliy kolorit adabiyoti realizmning dastlabki ko‘rinishidan keyinchalik yanada kengroq tus olib, region tasviriga urg‘u berilgani, regionalizm hikoyachilikda mamlakatning chekka hududlari turli rakurslarda realistik tasvir uslubi orqali yoritilib, ularda achinish, hamdarlik, qayg‘urish, tasalli berish kabi mavzular ustuvor bo‘lgani kabi masalalar tadqiq etiladi. Davr yozuvchilari orasida ayollar masalasi, ularning jamiyat bilan yuz beradigan ziddiyatlari, individual shaxs sifatida o‘zligini anglashi, shaxsiy xohish va erkinliklarini yangicha yondashuv va tasvir vositalari orqali ifoda etishi mazkur hikoyachilikning spetsifik xususiyatlari sirasiga kiradi.

Regional hikoyalarda davrning an’ana va zamonaviylik o‘rtasidagi kurash, yakkalanish va jamoaviylik, o‘ziga xoslik hissi, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi tafovut kabi turli xil mavzular yoritildi. Bu davrda yozilgan hikoyalar o‘zining turli xil elementlari hamda janriy o‘ziga xosligi bilan ajralib turdi.

---

[15] Radke M. L. Local-Color Fiction in Middle Western Magazines 1865-1900. // A Dissertation Submitted to The Graduate School in Partial Fulfillment of The Requirements for The Degree Doctor of Philosophy Field of English, Illinois, 1965. – P. 10.

[16] Izoh: Madaniy antropologiya insoniyat madaniyatini o‘rganib, ularning ijtimoiy hayotida kashf etilgan va yo‘lga qo‘yilgan tizimlarni tadqiq etuvchi umumiy termindir. Madaniy antropologiya insoniyatning avloddan avlodga o‘tib kelayotgan urf-odatlari, an’analari, ijtimoiy hayoti, dini, san’ati, iqtisodiy va siyosiy qadriyatlarini o‘rganadi. Kalanov K., Sabirova U. Ijtimoiy antropologiya: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Go To Print», 2020. – B. 3–4.

Amerika adabiy regionalizm davri, XIX asr realizmi va romantizmining ta'sirida bo'lganligi tufayli, hikoyada tavsifning aniqligiga amal qilinib, asarlar g'ayrioddiy yoki notanish urf-odatlar, narsalar va odamlar bilan boyitildi. Tadqiqotlarga ko'ra, bunday asarlarda hikoya muhitiga kuchli e'tibor qaratish, ba'zan shunday darajada bo'ldiki, yozuvchi asarida go'yo muhit va odamlarni tasvirlashdan boshqa hech narsa sodir bo'lmayotgandek tuyuldi.[17] Yozuvchilar badiiy hikoyalari orqali jamiyat mohiyatini qamrab olishni maqsad qildilar hamda shu mintaqalarning urf-odatlari, shevalari, tabiati va kundalik tajribalarini o'z asarlarining asosiga aylantirdilar. Bunday hikoyalarda makon, til va madaniyat bir-biriga bog'liq holda asarning muhim tuzilmasiga aylanib, syujetni harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ldi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"M.Frimen hikoyalarida mahalliy tasvir individualligi hamda tematik qamrov doirasi**" deb nomlangan va uch fasldan iborat. Mazkur bobning birinchi fasli "M.Frimen hikoyalarida davr, tuzum va muhitning badiiy in'ikosi" deb sarlavhalangan. M.Frimenning hikoyalari o'z davrida B. Hart, J.V.Keybl va Ch.Xarrisning asarlari kabi shov-shuvga sabab bo'lmagan bo'lsa-da, u adabiyotda o'ziga xos yo'ldan borib, o'zining sodda, shakli va tilining oddiyligi bilan jahon adabiyoti durdonalariga o'xshaydigan asarlar yarata oldi. Zamondoshlari orasida kuchli realizm tuyg'usi, poetik iste'dod va badiiy mahoratga ega, manzarani bir-ikki bo'yoq bilan chizib bera oladigan yozuvchi sifatida tanildi.

J.S.Finining etnik o'zlik (ethnic identity) nazariyasiga ko'ra, insonning o'zini anglashi turli bosqichlarda namoyon bo'ladi. Tadqiqotchi bu jarayonni to'rt bosqichga bo'lib o'rganadi[18].

1. Diffuse – noaniq mujmal bosqich. Bunda inson o'zini umuman anglamagan va etnik o'ziga xoslik haqida ma'lumotga ega emas.

2. Foreclosed – qisman tanilish bosqichi. Bunda inson jamiyatdagi o'rnini tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lmasa-da, o'zining shaxsiy qarashlarini kashf eta boshlaydi.

3. Moratorium – o'zligini his etishda chalkashish. Bunda inson etnik o'ziga xoslik tushunchasini o'zida topishda ikkilanadi.

4. Achieved – o'zini to'liq anglash bosqichi. Bunda inson etnik o'ziga xosligini aniq tushunadi va anglaydi.

J. S. Fini har qanday insonning etnik o'zligini kashf etishida ayniqsa ularni o'rab turgan muhit, ular yashagan davr va undagi mavjud tuzumning ta'siri beqiyos ekanligini e'tirof etadi. M.Frimen hikoyalaridagi izchil mohiyat, yagona g'oya, ularni birlashtirib turadigan asosiy mavzu ham ayollarning o'z erkinligi, qarashlari, mustaqil fikriga ega bo'lish uchun kurashlaridan iborat. Yozuvchi ayol qahramonlarining o'z-o'zini anglash jarayoni ham muayyan mintaqada turli omillar ta'sirida ro'y berdi. Biz hikoyalardagi qahramonlarning o'zligini topishi, unga yetaklaydigan kuch hamda jamiyatning ularga ta'sirini etnik o'ziga xoslik nazariyasi

[17] Laffrado L. Ella Rhoads Higginson, Mary E. Wilkins Freeman, and Pacific Northwest Women's Literary Regionalism // Legacy. – 2014. – Vol. 31, No. 2. – P. 285.

[18] Phinney J.S. Stages of Ethnic Identity Development in Minority Group Adolescents // The Journal of Early Adolescence. – 1989. – Vol. 9, No. 1–2. – P. 38.

asosida quyidagi kategoriyalarga ajratib tahlil qilishni lozim topdik. M.Frimen regional hikoyalarida ayol qahramonlarning etnik o‘zligi turli faktorlar natijasida shakllanishini aks piramida shaklida tasvirladikki, unga ko‘ra, omillarning ayol qahramonlar etnik shakllanishida ahamiyati darajasini ko‘rish mumkin.



1-rasm. M.Frimen ayol qahramonlarining etnik o‘zlik shakllanish nisbatlari

I.Nendi M.Frimen hikoyalaridagi ayollarni gavdalantirish mahoratini alohida e’tirof etib: “*Freeman portrays the live of women who are trying to struggle to gain betterment in their lives. In many of her writings, she portrays the live of women who are not dependent upon marriage, maternity and mothering and some of them even refuse to take role as housewives or home keepers in the patriarchal familie*s”,[19] deya ta’kidlaydi. Yozuvchi hikoyalarida qahramonlari iqtisodiy jihatdan nochor, chekka hududlarda yashab, oila, onalik va bola tarbiyasi yoki patriarxal muhitda uy bekasi kabi rollarda bo‘lsalar-da, davrning nosog‘lom muhiti, asossiz va hukmron talablariga qarshi, o‘zlarining yashirin hamda kutilmagan kuchlarini safarbar etib, mustaqil hayot uchun kurashadilar.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “M.Frimen hikoyalarida ayol va jamiyatning binar oppozitsiyasi” deb nomlanib, M.Frimen hikoyachiligidagi ijodiy bosqichlar va yaratilgan asarlarda regionallik kasb etgan tematik qamrov ochib beriladi. M.Frimen hikoyachiligi quyidagi ijodiy davrlarga bo‘linadi: *Ilk bosqich* (1870-1880) “The Adventures of Ann”, “A Humble Romance and Other Stories”; *O‘rta bosqich* (1890-1900) “The Revolt of Mother and Other Stories”; *So‘nggi bosqich* (1900-1920) “The New England Nun and Other Stories”. M.Frimenning “A New England Nun”, “A Gala Dress”, “Christmas Jenny” hikoyalari misolida aytish mumkinki, qishloq hayotiga xos manzaralar, sodda, beg‘ubor, aldanuvchan xarakterlarni tasvirladi. M.Frimen ayol va jamiyat orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ayollar xarakter dinamikasiga atrofdagi voqealar ta’siri, o‘zlikni anglash tushunchasi himoyasi yo‘lida tizginsiz kurashlari, gender tengsizlik, ayol sabri, matonati, turmushdagi hurmat va o‘zaro munosabat kabi XIX asr ayollari orasida dolzarb masalalar tadqiqiga nazar tashlaydi. “*She looked as immovable to him as one of the rocks in his pastureland, bound to*

[19] Nandy I. K A Critical Reading: Contradictory Perspectives on Patriarchy as Seen in The Female Characters of Mary E. Wilkins Freeman’s “The Revolt Of ‘Mother’ // Deiksis Vol. 6, No.1, 2014. – P. 33-34.

the earth with generations of blackberry vines"[20]. Saraning har galgidek e'tibordan chetda qolib, so'zlarining tinglanmasligi, o'rinli savollarining ham javobsiz qolishini muallif yaylovdagi qimirlamaydigan qoya tosh, yerga yopishgan maymunjon mevalariga qiyoslab tasvirlaydi. Qahramon zohiriy qiyofasining bunday tasviri muallif bayon uslubining ancha mukammallashganidan darak beradi. M. Frimen tasvir fonida endi faqatgina Yangi Angliya chekka hudud manzaralarini emas, balki hikoya personajlarining umumiy hissiyotlari, dil tug'yonlarini turli ko'rinishdagi ifodalar orqali aks ettiradi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli "Yozuvchi regional hikoyalarida ayol ruhiyati tasviri" deb nomlanib, M.Frimen hikoyalarida ayol qahramonlarning ichki olami, shaxsiyatidagi kuchli hamda zaif jihatlarni bevosita – dialog, muallif nutqi, psixologik detal, retrospeksiya hamda bilvosita – ramzlar, peyzaj, harakat, fiziologik o'zgarishlar orqali badiiy voqelanishi tahlilga tortiladi. M.Frimen regionalistik hikoyalarida ayol obrazlari faqat individual ruhiy tajriba egasi emas, balki muayyan ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida shakllangan murakkab va ko'p qatlamli shaxslar sifatida namoyon bo'ladi.

1-jadval

M.Frimen hikoyalari ayol qahramonlar ruhiyati badiiy ifodasidan namunalar


Psixologik vositalar	Misollar	Hikoyalar
Dialog	*'What are they digging for, mother?' said she.* *'Did he tell you?' 'They're diggin' for- a cellar for a new barn.'* *'Oh, mother, he ain't going to build another barn?'* *'That's what he says.'*[21]	*"The Revolt of Mother"*
Muallif nutqi	*Harriet, even in her girlhood, had a blunt, defiant manner. Charlotte had always had the reputation of not being any too strong in her mind.*[22]	*"Mistaken Charity"*
Psixologik detal	*Louisa sat there in a daze, listening to their retreating steps.*[23]	*"A New England Nun"*
Peyzaj	*It was late in the afternoon, and the light was waning, little swarms of flies were dancing up and down before the peoples' faces in the soft air.*[24]	*"A New England Nun"*
Retrospeksiya	*In that length of time much had happened. Louisa's mother and brother had died, and she was all alone in the world.*[25]	*"A New England Nun"*
Qahramon harakati	*Sarah Penn stood in the door like a queen; she held her head as if it bore a crown; there was that patience which makes authority royal in her voice.*[26]	*"The Revolt of Mother"*

